

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 467 sahifa.

2025-yil, 10-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSİYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'yidinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидахраловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI.....	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ	446
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARINING ZARURLIGI	454
Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li	
TURISTIK KLASTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI	462
Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI

Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi

Tadqiqotchi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Email: barchin967@gmail.com

ORCID: 0009-0006-0364-0048

Annotatsiya: Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs ta'minoti boshqaruvining nazariy konsepsiyalari va modellari ilmiy tahlil qilinadi. Resurs ta'minoti nafaqat moddiy-texnik resurslarni, balki mehnat, moliyaviy, axborot va innovatsion resurslarni samarali boshqarishni ham qamrab olishi ta'kidlanadi. Klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda resurslardan foydalanish mexanizmlari, logistika va Supply Chain Management konsepsiyalari, shuningdek Lean va Agile kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari o'rganiladi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs ta'minotini boshqarishning tizimli, dinamik, optimallashtirish va riskga asoslangan modellari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida resurs ta'minoti samaradorligini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks konseptual model ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: resurs ta'minoti, xizmat ko'rsatish korxonalari, boshqaruv konsepsiyalari, boshqaruv modellari, logistika, Supply Chain Management, Lean, Agile, tizimli yondashuv, resurs samaradorligi, optimallashtirish, innovatsion boshqaruv.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the theoretical concepts and models of resource supply management in service enterprises. It is emphasized that resource supply covers not only material and technical resources but also the effective management of labor, financial, information, and innovative resources. The mechanisms of resource use in classical and modern economic theories, logistics and Supply Chain Management concepts, as well as modern management approaches such as Lean and Agile, are examined. Systematic, dynamic, optimization, and risk-based models of resource supply management in service enterprises are analyzed. Based on the results of the study, a comprehensive conceptual model is developed to improve resource supply efficiency and enhance the quality of services.

Key words: resource supply, service enterprises, management concepts, management models, logistics, Supply Chain Management, Lean, Agile, systematic approach, resource efficiency, optimization, innovative management.

Аннотация: В статье проводится научный анализ теоретических концепций и моделей управления поставкой ресурсов на предприятиях сферы услуг. Подчеркивается, что поставка ресурсов охватывает не только материально-технические ресурсы, но и эффективное управление трудовыми, финансовыми, информационными и инновационными ресурсами. Рассматриваются механизмы использования ресурсов в классических и современных экономических теориях, концепциях логистики и управления цепями поставок, а также современные подходы к управлению, такие как Lean и Agile. Анализируются системные, динамические, оптимизационные и риск-ориентированные модели управления поставкой ресурсов в сфере услуг. По результатам исследования разработана комплексная концептуальная модель, направленная на повышение эффективности использования ресурсов и улучшение качества предоставляемых услуг.

Ключевые слова: поставка ресурсов, предприятия сферы услуг, концепции управления, модели управления, логистика, управление цепями поставок, Lean, Agile, системный подход, эффективность ресурсов, оптимизация, инновационное управление.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida resurs ta'minoti boshqaruvi dunyo miqyosida iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon amaliyotida korxonalar o'z faoliyatini barqaror va raqobatbardosh olib borishi uchun resurslardan oqilona foydalanish, ta'minot zanjirini optimallashtirish va innovatsion boshqaruv modellari qo'llashga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda Supply Chain Management (SCM), Just-in-Time, Lean, Agile kabi yondashuvlar keng joriy etilgan bo'lib, ular resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro korporatsiyalar resurslarni boshqarishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli logistik platformalardan foydalanib, ta'minot tizimlarini yanada samarali shakllantirmoqda.



Mamlakatimizda esa so'nggi yillarda xizmatlar sektorini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, sanoatni modernizatsiya qilish dasturlari hamda xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar resurs ta'minoti boshqaruvini takomillashtirishga alohida urg'u bermoqda. Xususan, bank, transport, sog'liqni saqlash va turizm sohalarida resurslardan samarali foydalanish, logistika zanjirlarini modernizatsiya qilish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, milliy amaliyotda resurs ta'minoti boshqaruvining zamonaviy konsepsiyalari va modellarini to'liq joriy qilish jarayoni hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, ularni chuqur ilmiy asoslash va milliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud.

Shu bois, xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs ta'minoti boshqaruvining nazariy konsepsiyalari va modellari bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish, ularni tahlil qilish va O'zbekiston sharoitida samarali model ishlab chiqish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Resurs ta'minoti masalasi iqtisodiy nazariyalarda qadimdan o'rganib kelinmoqda. A. Smit o'zining "ko'rinmas qo'l" nazariyasi orqali bozor mexanizmi resurslarni samarali taqsimlashini asoslab bergan. D. Rikardo nisbiy ustunlik nazariyasi orqali resurslardan foydalanishda ixtisoslashuvning muhimligini ko'rsatgan. K. Marks esa ishlab chiqarish omillarini – mehnat, kapital va yer – resurs ta'minotining asosiy manbalari sifatida tahlil qilgan.

Neoklassik yondashuvlarda, xususan V. Paretoning optimal taqsimot nazariyasida resurslardan foydalanishda samaradorlik va muvozanat masalalari yoritilgan. Zamonaviy iqtisodiyotda esa resurs boshqaruvi ko'proq Supply Chain Management (SCM) konsepsiyasi bilan bog'lanib, resurs oqimlari integratsiyasi va logistika samaradorligi asosida tahlil qilinmoqda.

Bundan tashqari, Lean management, Agile va Just-in-Time (JIT) kabi boshqaruv yondashuvlari ishlab chiqarish hamda xizmatlar sektorida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda asosiy model sifatida qaralmoqda. M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasida resurslardan samarali foydalanish va ta'minot zanjiridagi ustunlik kompaniya muvaffaqiyatining muhim omili ekanligi qayd etilgan.

O'zbek olimlari ham resurs ta'minoti boshqaruvi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Q.X. Abdurahmonov, B.T. Xodjayev va boshqalar o'z ishlarida xizmatlar sektorida resurslardan samarali foydalanish, logistika tizimlarini rivojlantirish va ta'minotning uzluksizligini ta'minlash zarurligini ta'kidlagan. Z.Y. Xudoyberdiyevning izlanishlarida esa resurs ta'minoti boshqaruvida tashkiliy mexanizmlar va korxonalar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asoslangan.

So'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron logistika tizimlarini rivojlantirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv usullarini qo'llash masalalari milliy ilmiy adabiyotlarda ham keng o'rganilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs ta'minoti tizimini o'rganishda sohaga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Soha ekspertlari va amaliyotchi mutaxassislar bilan intervyular o'tkazilib, ularning fikrlari yig'ildi hamda tahlil qilindi. Resurs ta'minotining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida so'rovnomalarni va anketalar tuzildi. Olingan ma'lumotlar statistik qayta ishlanib, ular asosida resurs ta'minotining korxona iqtisodiy natijalariga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Resurs ta'minoti boshqaruvi iqtisodiyot nazariyasi va amaliy boshqaruv tizimlarida turli bosqichlarda shakllangan bo'lib, uni shartli ravishda uch asosiy yondashuv asosida tahlil qilish mumkin.

Birinch bosqich – klassik iqtisodiy maktab.

A. Smit, D. Rikardo va K. Marks kabi klassik iqtisodchilar resurslarni ishlab chiqarish omillari sifatida ko'rib chiqqan. A. Smitning "ko'rinmas qo'l" nazariyasi bozor mexanizmlari orqali resurslarning tabiiy taqsimlanishini asoslab bergan. D. Rikardo nisbiy ustunlik nazariyasida resurslardan foydalanishda ixtisoslashuvning samaradorlikni oshirishdagi rolini ko'rsatgan. K. Marks esa ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslarini jamiyat taraqqiyotining asosiy manbai sifatida tahlil qilib, resurs ta'minotining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ochib bergan. Ushbu yondashuvlarda resurslarning cheklanganligi va ularni qayta taqsimlash zaruriyati asosiy muammo sifatida talqin etilgan.

Ikkinchi bosqich – neoklassik va institutsional yondashuvlar.

Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari (V. Pareto, A. Marshall) resurs taqsimotining samaradorligini Pareto optimal muvozanati asosida tushuntirib, resurslardan foydalanishda bozor mexanizmlarining samarali ishlash shartlarini ishlab chiqdilar. Pareto optimal holati resurslar taqsimoti biror subyekt holatini yaxshilamasdan



turib boshqasini yomonlashtirmaslik tamoyiliga asoslangan. Institutsional nazariya vakillari esa (D. North, O. Williamson) resurs ta'minotini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy institutlar, qonunchilik va boshqaruv tizimlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taklif qildilar. Bu yondashuv resurslarni boshqarishda tashkiliy mexanizmlarning va samarali institutlarning rolini ko'rsatib berdi.

Uchinchi bosqich – zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshidan boshlab resurs ta'minoti boshqaruvi logistika va Supply Chain Management (SCM) konsepsiyalari asosida yangi bosqichga ko'tarildi. Logistika resurs oqimlarini samarali boshqarish va ularni integratsiya qilishni nazarda tutadi. SCM esa resurslarni yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bo'lgan barcha zanjirni optimallashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, Just-in-Time (JIT) tizimi ortiqcha resurs zaxiralarini kamaytirishga, Lean management ortiqcha xarajatlarni qisqartirishga, Agile yondashuvi esa tezkor moslashuvchanlikni ta'minlashga qaratilgan. Zamonaviy konsepsiyalarda resurs ta'minotini boshqarish jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili kabi innovatsion vositalardan foydalanish ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining samarali faoliyati ko'p jihatdan resurs ta'minoti tizimining uzluksiz ishlashiga bog'liq. Ammo amaliyotda bu sohada qator muammolar mavjud bo'lib, ular korxonalarning raqobatbardoshligi va xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada modernizatsiya qilinmaganligi. Ko'plab xizmat ko'rsatish korxonalari eskirgan texnologiya va jihozlardan foydalanmoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish jarayonlarining sekinlashuviga, sifatning pasayishiga va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Masalan, transport va logistika sohalarida texnik parklarning eskiligi xizmatlar tezligi va ishonchligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, logistika tizimlarida integratsiya darajasining pastligi. Xizmat ko'rsatish korxonalari ko'pincha mustaqil faoliyat yuritadi va ular o'rtasida yagona axborot tizimi shakllanmagan. Natijada, resurslarning yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bo'lgan oqimlari uzluksiz boshqarilmaydi. Bu esa ta'minot zanjirlarida ortiqcha vaqt sarfi, qo'shimcha xarajatlardan va samarasizlikni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, mehnat resurslarining raqamli kompetensiyalari yetarli emasligi. Raqamli transformatsiya davrida xizmat ko'rsatish xodimlaridan yangi ko'nikmalar talab etilmoqda. Ammo amaliyotda ko'plab xodimlar raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va zamonaviy dasturiy vositalardan samarali foydalana olmayapti. Bu xizmatlarni avtomatlashtirish, elektron platformalar orqali boshqarish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

To'rtinchidan, moliyaviy va innovatsion resurslarni jalb qilish mexanizmlarining sustligi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining ko'pi cheklangan moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular uchun kredit, investitsiya yoki davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari tor. Shu bois yangi texnologiyalarni joriy etish va resurs ta'minotini takomillashtirish uchun zarur moliyaviy manbalar yetarli emas. Innovatsion resurslardan foydalanish darajasi ham past bo'lib qolmoqda.

Beshinchidan, risklarni boshqarish va uzluksizlikni ta'minlash mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi. Xizmatlar bozori yuqori noaniqlik va xavf bilan xarakterlanadi. Ammo ko'plab korxonalarda risklarni baholash va kamaytirish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Bu resurslar yetkazib berilishida uzilishlar, xizmatlarning kechikishi va mijozlar ishonchining pasayishiga olib keladi.

1-jadval. Resurs ta'minoti boshqaruvining amaliy modellari

Model nomi	Asosiy mazmuni	Amaliy qo'llanish sohasi	Afzalliklari	Cheklovlari
Tizimli model	Resurs oqimlarini yagona integratsiyalashgan tizimda boshqarish	Logistika, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, IT boshqaruvi	Uzluksizlik, shaffoflik, tezkorlik	Axborot tizimiga yuqori xarajat talab qiladi
Dinamik model	Resurslarning qayta ishlab chiqarilishi va aylanishini boshqarish	Transport, sog'liqni saqlash, energetika	Resurslar davriyligini nazorat qiladi	Vaqt bo'yicha prognoz aniqligi cheklangan
Optimallashtirish modeli	Xarajat-samaradorlik nisbatini aniqlash	Transport yo'nalishlari, xodimlar taqsimoti, moliyaviy rejalashtirish	Xarajatlarni kamaytiradi, samaradorlikni oshiradi	Ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi talab qilinadi
Riskga asoslangan model	Resurs ta'minotidagi xavf va noaniqliklarni kamaytirish	Yetkazib berish, moliyaviy operatsiyalar, turizm xizmatlari	Barqarorlikni oshiradi, ishonchlikni ta'minlaydi	Risklarni aniq o'lchash qiyin



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs ta'minotini boshqarishda samaradorlikni oshirish uchun turli nazariy modellardan foydalaniladi. Ushbu modellarning har biri o'zining afzalliklari va cheklovlariga ega bo'lib, ular korxonalarning resurslardan oqilona foydalanishi, xizmatlar sifatini oshirishi hamda risklarni kamaytirishga qaratilgan.

Tizimli model. Tizimli model resurs oqimlarini yagona integratsiyalashgan tizimda boshqarishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda resurslarning manbadan iste'molchiga qadar bo'lgan barcha bosqichlari yagona axborot tizimi orqali boshqariladi. Masalan, logistika jarayonlarini ERP yoki SCM dasturlari yordamida yagona tizimda boshqarish. Bu xizmatlarning uzluksizligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Dinamik model. Dinamik model resurslarning qayta ishlab chiqarilishi va aylanishini boshqarishga qaratilgan. Bu model xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish davriyligini, ularning qayta ta'minlanish sur'atini hamda vaqt bo'yicha samaradorligini o'rganadi. Misol uchun, transport xizmatida yonilg'i resurslarini boshqarish yoki sog'liqni saqlashda dori vositalarining doimiy ta'minotini nazorat qilish.

Optimallashtirish modeli. Optimallashtirish modeli resurslardan foydalanish jarayonida xarajat va samaradorlik nisbatini aniqlashga qaratilgan. Bu model matematik modellashtrish, chiziqli va nolinchi dasturlash (linear/non-linear programming) usullariga asoslanadi. U yordamida resurslarning eng maqbul hajmi va taqsimoti aniqlanib, ortiqcha xarajatlarni kamaytiriladi. Misol uchun, xizmat ko'rsatish korxonasida xodimlar sonini optimallashtirish yoki transport yo'nalishlarini tejamkorlik bilan boshqarish.

Riskga asoslangan model. Riskga asoslangan model resurs ta'minotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar, noaniqliklar va xavf omillarini baholashga qaratilgan. Bu model risklarni tahlil qilish, ehtimolliklarni aniqlash va ularni kamaytirish choralari ishlab chiqishni taqozo etadi. Masalan, xizmat ko'rsatish korxonasida resurslar yetkazib berilishida kechikish ehtimolini kamaytirish uchun bir nechta yetkazib beruvchilar bilan ishlash.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi bevosita resurslardan foydalanish darajasiga bog'liq. Resurs ta'minotining samaradorligi ishlab chiqarish jarayonlari uzluksizligini, xizmatlarning tezkorligini va sifat ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Masalan, transport va logistika sohasida yoqilg'i, texnika va inson resurslari oqilona boshqarilmasa, xizmat tezligi va ishonchligi pasayadi. Shu bois, resurs ta'minoti boshqaruvini samarali tashkil etish xizmatlar sifatini oshirishning strategik omili hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir nazariy yondashuv resurs boshqaruviga o'ziga xos hissa qo'shadi. Klassik iqtisodchilar (A. Smit, D. Rikardo) resurslarning iqtisodiy mohiyatini asoslab bergan bo'lsa, institutsional yondashuvlar (D. North, O. Williamson) resurslarni ta'minlashda samarali institutlar va tashkiliy mexanizmlarning rolini yoritgan. Zamonaviy konsepsiyalar – logistika, SCM, Lean va Agile – resurs ta'minotini amaliy boshqarishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida ushbu konsepsiyalarning integratsiyalashgan qo'llanilishi eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda SCM va logistika tizimlarining keng qo'llanilishi samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Masalan, Chopra & Meindl tadqiqotlarida SCM tizimi orqali ta'minot zanjirida yo'qotishlar kamayishi, xizmat ko'rsatish tezligi va mijoz qoniqishi oshishi qayd etilgan. O'zbekiston korxonalarida ham logistika va SCM modellarini tatbiq qilish orqali resurslardan samarali foydalanish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyati mavjud.

Bugungi kunda resurs boshqaruvi jarayonlarida raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Big Data yordamida resurs oqimlari real vaqt rejimida nazorat qilinadi, SI algoritmlari esa prognozlash va optimallashtirish imkoniyatini beradi. Misol uchun, transport xizmatida yo'nalishlarni SI asosida optimallashtirish yoqilg'i sarfini kamaytiradi va tezkorlikni oshiradi. Shuningdek, elektron monitoring tizimlari risklarni aniqlash va ularning oldini olish imkonini yaratadi.

Milliy amaliyotda resurs ta'minoti boshqaruvi turli yo'nalishlarda qisman rivojlangan bo'lsa-da, yagona integratsiyalashgan model hali ishlab chiqilmagan. Shu bois, O'zbekiston sharoitiga moslashgan konseptual model quyidagilarni o'zida mujassam etishi zarur:

- tizimli yondashuv – resurs oqimlarini yagona boshqaruv tizimi orqali integratsiyalash;
- optimallashtirish yondashuvi – xarajat–samaradorlik nisbatini aniqlash va ortiqcha resurslardan qochish;
- riskga asoslangan yondashuv – ta'minot zanjiridagi uzilishlarni kamaytirish va uzluksizlikni ta'minlash.

Bunday kompleks model xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga mos darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smit, A. Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
2. Rikardo, D. Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.



3. Marks, K. Kapital. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
4. Pareto, V. Manual of Political Economy. – New York: Augustus M. Kelley, 1971.
5. North, D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
6. Williamson, O. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985.
7. Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management. – 5th ed. – Harlow: Pearson Education, 2016.
8. Chopra, S., & Meindl, P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. – 7th ed. – Pearson, 2019.
9. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1998.
10. Ohno, T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. – Portland: Productivity Press, 1988.
11. Womack, J. P., & Jones, D. T. Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. – New York: Simon & Schuster, 2003.
12. Highsmith, J. Agile Project Management: Creating Innovative Products. – Addison-Wesley, 2010.
13. Abdurahmonov, Q.X. Iqtisodiy resurslarni boshqarish nazariyalari. – Toshkent: Fan, 2020.
14. Xodjayev, B.T. Xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
15. Xudoyberdiyev, Z.Y. Logistika tizimlarini boshqarish va xizmatlar sektori samaradorligi. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
16. Karimov, A. Raqamli iqtisodiyotda resurs ta'minoti boshqaruvi. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
